

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSTETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.13.012.24 (575.1)**

BAUYETDINOV MAJIT JANIZAQOVICH

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGI
VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo'yicha

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi: Isakov Janabay Yakipbaevich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Nukus – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I-BOB	XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	14
1.1-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	14
1.2-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligi bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni boshqarishning nazariy asoslari.....	30
1.3-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning metodologik asoslari.....	45
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	61
II-BOB	XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH BO‘YICHA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI.....	64
2.1-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligini ta‘minlash.....	64
2.2-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash.....	79
2.3-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini innovatsiyalar asosida ta‘minlash bo‘yicha xorij tajribasi.....	94
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	109
III-BOB	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGI.....	113
3.1-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi.....	113
3.2-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi.....	129
3.3-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligiga ta‘sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	141
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	154

IV-BOB	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH YO‘LLARI.....	157
4.1-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar.....	157
4.2-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari.....	169
	To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....	185
	XULOSA.....	190
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	201

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash ularning uzoq muddatli faoliyat samaradorligini, investitsiyaviy jozibadorligini va tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan bardoshlilikini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Likvidlik darajasining yuqori bo‘lishi korxonaning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishini kafolatlasa, moliyaviy barqarorlik kapital tuzilmasining optimallasuvi va qarz miqdorining muvozanatda bo‘lishi orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlaydi. Hisobot ma‘lumotlariga ko‘ra, “General Motors” kompaniyasining joriy likvidlilik koeffitsienti 2019-2022-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning ustiga, kompaniyaning joriy likvidlilik koeffitsienti 2023-yilda 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada (0,22 f.p.) oshgan”¹. “TOSHIBA” korporatsiyasida operatsion daromadlar miqdori 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 4,4 foizga ko‘paygan”². Shu jihatdan, xalqaro moliya bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish, inflyatsiya xavflarini bartaraf etish va iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ustuvor tarzda saqlashda mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unligi katta amaliy va strategik ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga innovatsiyalarni joriy qilish orqali mehnat unumdorligini oshirish va tannarxning tushum hajmidagi salmog‘ini pasaytirish, kompaniyalar aktivlarining daromadlilik va likvidliligi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash, kompaniyalar aksiyalarining investitsion jozibadorligini oshirish, ularning moliyaviy inqirozlarga chidamliligini stress-testlash vositasida baholash aniqligini oshirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z kapitalining o‘sish sur‘ati bilan majburiyatlarining o‘sish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish, eksportning geografik va mahsulotli diversifikatsiyasini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, milliy iqtisodiyotda to‘lovsizlik muammosi mavjud bo‘lgan sharoitda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligini ta‘minlash, to‘lovlarning maqsadli ketma-

¹ General Motors. Annual Reports// <https://www.gm.com>

² TOSHIBA. Annual Reports// <https://www.global.toshiba>

ketligi qo'llanilayotgan sharoitda to'lov risklarini kamaytirish, global trendlarning ularning likvidliligi va moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'siriga barham berish kabi masalalar ilmiy asosda kompleks tadqiq qilinmagan. Bu esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida "milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan"³. Bu esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash zarurligini yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra, banklarning kreditlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, debitor qarzdorlikning aylanish tezligini oshirish, likvidli aktivlarning o'sish sur'ati bilan joriy majburiyatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy likvidliligini ta'minlash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimi barqarorligini ta'minlash yo'li bilan moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish, innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish yo'li bilan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxining mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'ini pasaytirish asosida korxonalarning rentabelligini

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. //www.lex.uz.

oshirish, sof foydaning o'sish sur'ati bilan aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan aktivlarning rentabelligini oshirish masalalariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori va boshqa ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴. Kompaniyalarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Harvard University (AQSh), University of Bonn (Germaniya),

⁴ Hess G., Morris C. The Long-Run Costs of Moderate Inflation // Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71-88.; Markowitz, H. 'Portfolio Selection/ The Journal of Finance, 1952 – №7. – P. 77-91.; Grey P., (2003). Extending the eclectic paradigm in international business//Edward Elgar publishing Limited, pp.56-60.; Allen F., Gale D. Comparing Financial Systems. – Cambridge, Mass: MIT Press, 2000. – P. 42.; Chancel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risque PME. – Presses Universitaires de Lyon, 2001. – P. 39-40.; Wang, X. and L. Wang, 2007. Study on Black-Scholes stock option pricing model based on dynamic investment strategy. International Journal of Innovative Computing, Information and Control, 3 (6B): 1755–1780.; Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//Journal of Finance, 1968, September. – P. 63–69.; Тимофеева К.А., Помелов Д.В. Управление ликвидностью//Азимут научных исследований, 2014. - №3. – С. 99-101.; Курилова А.А. Экономические процессы внутреннего контроля как элемента финансового механизма управления на предприятии автомобильной промышленности//Азимут научных исследований: экономика и управление, 2014. – № 2. – С. 34-37.

University of Paris Sorbonne (Fransiya), Oxford University (Buyuk Britaniya), Institut ekonomicheskoy politiki imeni Ye.Gaydara (Rossiya) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Kompaniyalar faoliyatini innovatsion rivojlantirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini oshirish takliflari amaliyotga joriy etilgan (Harvard University, AQSh); kompaniyalarning joriy aktivlari va joriy majburiyatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash (University of Paris Sorbonne, Fransiya); kompaniyalar va firmalar aktivlarining optimal tarkibini shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan (Institut ekonomicheskoy politiki imeni Ye.Gaydara, Rossiya).

Jahonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish qaratilgan qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda: kompaniyalarning xarajatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish; kompaniyalarning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar K.Timofeev, D.Pomelov, A.Kurilov, A.Muxacheva, Ye.Morozov, Ye.Pastuxova, V.Kovalev, Ye.Zubova, V.Borodin, S.Tolkacheva, J.Barro, X.Salai-Martin, L.Miller, A.Kosoy, M.Xromov, V.Gazman, J.Tobin, G.Shanel-Reyno, I.Blou, E.Altman va boshqalarning ilmiy ilarida tadqiq qilingan⁵.

⁵ Тимофеева К.А., Помелов Д.В. Управление ликвидность//Азимут научных исследований, 2014. - №3. – С. 99-101.; Курилова А.А. Экономические процессы внутреннего контроля как элемента финансового механизма управления на предприятии автомобильной промышленности//Азимут научных исследований: экономика и управление, 2014. – № 2. – С. 34-37.; Мухачёва А. В., Морозова Е. А., Пастухова Е. Я. Ретроспективная экономика: преодолены ли последствия «непризнанного» экономического кризиса 2014 года в индустриальных регионах России?//Муниципалитет: экономика и управление, 2019. – № 2 (27). – С. 18–31.; Ковалев В.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. М.: ООО «ТК Велби», 2013. – 244 с.; Zubova E.B. Проблемы платежеспособности и ликвидности российских предприятий//Инновационные технологии в машиностроении, образовании и экономике, 2017. Т. 5. – № 2 (4). – С. 56–60.; Бородин В.И. Международный факторинг как внешнеэкономическая сделка// Международные банковские операции. – Москва, 2008. – №1. – С.31.; Толкачева С.В. Научно-методические аспекты диверсификации предприятий хлебопекарной промышленности. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Воронеж, 2007. – 18 с.; Барро Дж.Р., Салаи-и-Мартин Х. Экономический рост. Пер. с англ. – М.: БИНОМ, 2010. – 824 с.; Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: Финансовая академия при правительстве РФ. -4-е изд., стереотип. -М.: КноРус, 2008. -264 с.; Миллер Л.Р. Современные деньги и банковское дело. – М.: Инфра-М, 2000. - 856с.; Косой А.М. Платежный оборот: исследование и рекомендации. Монография. – М.: КНОРУС, 2012. - 296 с.; Тихонов А. Коэффициент монетизации: некоторые аспекты теории, сравнительный анализ и

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullaeva, T.Bobakulov, B.Berkinov, Sh.Ergashxodjaeva, J.Isakov, A.Burxanov, S.Ismaylova, M.Yusupov, O.Namozov, J.Majidov, I.Alimardonov, F.Axmedov va boshqalarning ilmiy ishlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilgan⁶.

Lekin, o'zbekistonlik olimlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi mustaqil dissertatsion tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning metodologik

практические выводы//Банковский вестник. – Минск, 2000. - №25 (132). - С. 4-9.; Лазарева О.С., Советов И.Н. Управление дебиторской задолженностью предприятий//Электронный научный журнал «Век качества» Online scientific journal «Age of Quality», 2020. – № 4.; Ковалев В.В. Как читать баланс [Текст] / В.В. Ковалев, В.В. Патров. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 520 с.; Хромов М.Ю. Дебиторка. Возврат, управление, факторинг. - СПб.: Питер, 2008. - 205 с.; Газман В.Д. Лизинг в проектном финансировании//Финансы. – Москва, 2013. – №9. – С. 78-79.; Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост. – М.: Либроком, 2010. – С. 111-112.; Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. – Presses Universitaires de Lyon, 2001. – P. 39-40.; Wang, X. and L. Wang, 2007. Study on Black-Scholes stock option pricing model based on dynamic investment strategy. International Journal of Innovative Computing, Information and Control, 3 (6B): 1755–1780.; Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//Journal of Finance, 1968, September. – P. 63–69.

⁶ Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. – Тошкент: Молия, 2000.; Бобакулов Т.И. Ўзбекистон Республикасида миллий валюта курсининг барқарорлигини таъминлаш борасидаги муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари. И.ф.д. илм. дар. ол. учун тақ. эт. дисс. – Тошкент, 2008. – Б.74-75.; Беркинов Б.Б., Эргашходжаева Ш.Д. Трансаксия харажатларини бошқаришнинг илмий – услубий асослари. – Т: “Fan va texnologiyalar” 2016, - 211 б.; Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 79 б.; Бурханов А.У. Иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш шароитида саноат корхоналарининг молиявий барқарорлигини таъминлаш йўналишлари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 34 б.; Исмаилова С.С. Ўзбекистон Агрисаноат мажмуасида лизинг фаолиятини ривожлантиришнинг иқтисодий асослари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. автореф. – Т.: 2009. – 15 б.; Юсупов М.С. Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. И.ф.б. фалсафа докт. дисс. автореф. – Т.: 2018. – 56 б.; Намозов О.Ш. Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. д.э.н. – Ташкент, 2001. – С. 24.; Мажидов Ж.К. Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш йўллари. И.ф.б. ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 22.; Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2018 – 61 б.; Ахмедов Ф.Х. Ўзбекистонда тижорат банкларининг ташқи савдога кўрсатадиган хизматларини такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д. автореф. – Тошкент, 2017. – 47 б.

va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish va ularning amaliy ahamiyatiga baho berish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini baholash uslubiyotlarini qiyosiy tahlil qilish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning metodologik asoslarini tadqiq qilish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash borasidagi ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish;

respublikada xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligiga baho berish;

mamlakatda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning o‘rta muddatli prognozlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining yirik korxonalari – “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati, “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi va xususiy korxonalar olingan.

Tadqiqotning predmetini xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida induksiya va deduksiya, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik, statistik guruhlash, tarkibiy, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bank kreditlaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, debitor qarzdorlikning aylanish tezligini oshirish, likvidli aktivlarning o‘shish sur‘ati bilan joriy majburiyatlarning o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning joriy likvidliligini ($L_{min} = 1,25$) ta‘minlash taklifi asoslangan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimi barqarorligini ($K_f = 0,50-0,75$) oraliq chegarasida ta‘minlash orqali ularning moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish taklifi asoslangan;

korxonalarning rentabellik darajasini oshirishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tizimli tarzda integratsiyalash orqali mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish natijasida umumiy tushumdagi salmog‘ini pasaytirishning maqbul chegarasi ($8\% \leq T_{uts} \leq 12\%$)ni ta‘minlash orqali umumiy foyda hajmini oshirish va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish taklifi asoslangan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar sof foydasi o‘shish sur‘ati bilan aktivlarining o‘shish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash yo‘li bilan aktivlarning rentabelligini oshirishning ($ROA_{min} = 2,5\%$) maqbul darajasi asoslangan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidligi va moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida “O‘z kimyosanoat” AJning 2030 yilga qadar aktivlar rentabelligining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda g‘aznachilik tizimini takomillashtirish orqali ularning likvidligini boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligini baholash tartibini takomillashtirish maqsadida likvidlilikni baholash maqsadida qo‘llanilayotgan ko‘rsatkichlar (joriy likvidlilik koeffitsienti, qoplash koeffitsienti, debitor qarzdorlikni aylanish koeffitsienti) tarkibiga qo‘shimcha ravishda tezkor likvidlilik koeffitsientini, muddatli likvidlilik koeffitsientini, tovar zaxiralarining aylanish koeffitsientini va kreditor qarzdorlikning aylanish koeffitsientini kiritish taklif qilingan;

kompaniyalarda debitor qarzdorlikning aylanishini tezlashtirish yo‘li bilan likvidlilik koeffitsientlarining darajasini oshirish uchun debitor qarzdorlikni inkassatsiya qilishga asoslangan faktoring xizmati ko‘rsatish amaliyotini takomillashtirish, tijorat banklari tomonidan pul oqimi barqaror bo‘lgan korxonalar guruhi shakllantirish, faktoring xizmatlari bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish tavsiya qilingan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyalashtirish amaliyotida xorijiy investitsiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish maqsadida muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat olib borishni ta‘minlash orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni va portfelli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini oshirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xalqaro investitsion reyting bahosini (kamida *BBB*) olishni ta‘minlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning an‘anaviy (qo‘shma korxonalar, texnoparklar tashkil etish va boshq.) va innovatsion shakllaridan (venchurli moliyalashtirish, sinditsiyali kreditlash va boshq.) bir vaqtning o‘zida foydalanishni yo‘lga qo‘yishning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit to‘loviga layoqatliligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslarining tadqiqiga, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish natijalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma‘lumotlari va

korxonalarining faoliyatiga oid bo'lgan amaliy ma'lumotlarning tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy xulosa va takliflardan mamlakat iqtisodiyotining real sektorini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan mamlakatda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanishning mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

bank kreditlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, debitor qarzdorlikning aylanish tezligini oshirish, likvidli aktivlarning o'sish sur'ati bilan joriy majburiyatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy likvidliligini ($L_{min} = 1,25$) ta'minlash taklifi "MAXAM-Chirchiq" AJ, "Navoiyazot" AJ hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalar amaliyotiga joriy etilgan ("MAXAM-Chirchiq" AJning 2024-yil 15-fevraldagi 30-2/31-son, "Navoiyazot" AJning 2025-yil 5-maydagi 15/27.08-son, Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vazirligining 2023-yil 15-sentyabrdagi CU/09-08/3766-son ma'lumotnomalari). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "MAXAM-Chirchiq" AJ va "Navoiyazot" AJda joriy aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 2023-yilning birinchi choragi yakunida chorak boshiga nisbatan 20,4 foizli punktga oshgan, Qoraqalpog'iston Respublikasida korxonalar o'rtasidagi debitor qarzdorlikning hajmi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1,6 foizga qisqargan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimi barqarorligini ($K_f = 0,50-0,75$) oraliq chegarasida ta‘minlash orqali ularning moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish taklifi “MAXAM-Chirchiq” AJ va “Navoiyazot” AJ amaliyotiga joriy etilgan (“MAXAM-Chirchiq” AJning 2024-yil 15-fevraldagi 30-2/31-son, “Navoiyazot” AJning 2025-yil 5-maydagi 15/27.08-son ma‘lumotnomalari). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “MAXAM-Chirchiq” AJ va “Navoiyazot” AJning joriy aktivlari hajmida pul mablag‘larining salmog‘i 2023-yilning birinchi choragi yakunida chorak boshiga nisbatan 9,6 foizli punktga oshgan;

korxonalarning rentabellik darajasini oshirishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tizimli tarzda integratsiyalash orqali mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish natijasida umumiy tushumdagi salmog‘ini pasaytirishning maqbul chegarasi ($8\% \leq T_{uts} \leq 12\%$)ni ta‘minlash orqali umumiy foyda hajmini oshirish va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish taklifi “MAXAM-Chirchiq” AJ, “Navoiyazot” AJ hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalar amaliyotiga joriy etilgan (“MAXAM-Chirchiq” AJning 2024-yil 15-fevraldagi 30-2/31-son, “Navoiyazot” AJning 2025-yil 5-maydagi 15/27.08-son, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 15-sentyabrdagi CU/09-08/3766-son ma‘lumotnomalari). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “MAXAM-Chirchiq” AJ, “Navoiyazot” AJning rentabelligi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 3,5 foizli punktga oshgan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida korxonalar foydasi 2022-yilning yanvar-noyabr oyida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 foizga oshgan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar sof foydasi o‘sish sur‘ati bilan aktivlarining o‘sish sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash yo‘li bilan aktivlarning rentabelligini oshirishning ($ROA_{min} = 2,5\%$) maqbul darajasi asoslash taklifi “MAXAM-Chirchiq” AJ va “Navoiyazot” AJ amaliyotiga joriy etilgan (“MAXAM-Chirchiq” AJning 2024-yil 15-fevraldagi 30-2/31-son va “Navoiyazot” AJning 2025-yil 5-maydagi 15/27.08-son ma‘lumotnomalari). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “MAXAM-Chirchiq” AJ

va “Navoiyazot” AJda sof foydaning miqdori 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 25,8 foizga oshgan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida “O‘zkimyosanoat” AJning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan aktivlar rentabelligining prognoz ko‘rsatkichlari “Navoiyazot” AJ amaliyotiga joriy etilgan (“Navoiyazot” AJning 2025-yil 5-maydagi 15/27.08-son ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Navoiyazot” AJning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan aktivlar rentabelligining prognoz ko‘rsatkichlariga erishishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik holatini baholash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza shaklida bayon qilingan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 13 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkiban kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 200 betni tashil etadi.